XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2022 - yil 15 - iyul VI-58-111-9-132-K/22 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahar mahalliy byudjet parametriga o'zgartirish kiritish to'g'risida

Shahar hokimining birinchi o'rinbosarining xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asoslanib, Xalq deputatlari shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Shahar hokimligining E.Qaror axborot portali xarajatlari uchun mablag' ajratish to'g'risidagi shahar hokimining birinchi o'rinbosarining 2022 yil 23 maydagi 02/02-131 sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy byudjet parametriga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risidagi xisobotlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar moliya bo'limi (R.Suvonov)ga shahar mahalliy byudjetidan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni hamda kam ta'minlangan ehtiyojmand oilalarga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash choralarini ko'rish, ajratilayotgan byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni nazarda tutilgan holda past samarali shtat birliklarini hamda chorak yakuniga qadar rejalashtirilgan maqsadsiz xarajatlarni aniqlash va maqbullashtirish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

4. Shahar Davlat soliq boshqarmasi (A.Bekmatov)ning savdo va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda soliq to'lash darajasini keskin ko'tarish yuzasidan choralarini ko'rish vazifalari topshirilsin.

5. Shahardagi tijorat banklar (Raxbarlari)ga bankdan tashqari naqd pul aylanishini kamaytirish barobarida daromadlar hajmini oshirish, ish haqlari va unga tenglashtirilgan to'lovlar o'z vaqtida to'liq to'lanishi choralarini ko'rib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar hokimining birinchi o'rinbosari (I.Nurmatov), shahar moliya bo'limi (R.Suvonov), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (A.Bekmatov), har oyda byudjetga tushumlar tushishini bir me'yorda ta'minlashni tizimli tarzda yo'lga qo'yishga shaxsan javobgarliklari

belgilab qo‘yilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari I. Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi kotibyat mudiri (R.Botirov)ga yuklatilsin.

Shahar Kengashi raisi o'rinbosari **J. Komilov**

Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining
2022 yil 15 iyuldagi
VI-58-111-9-132-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shuni ma'lum kilamizki, Byudjet tashkilotining surovnomasiga asosan xarajatlar smetasiga uzgartirish kiritilmokda. asosan xarajatlar rejasiga kuyidagi o'zgarishlar kiritildi.

ming sum

Bulim	Kichik bulim	Bob	Xarajat guruxi	Xisob rakam	Xarajatlar			Uzgartirishlar summasi														
											Shu jumladan choraklar buyicha											
					Toifa	Modda va kichik modda	Element	oshirilgan	kamaygan	Jami	Jami 2-chorak	shu jumladan oylar buyicha			Jami 3-chorak	shu jumladan oylar buyicha			Jami 4-chorak	shu jumladan oylar buyicha		
												aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	*16*	*17*	*18*	*19*	*20*	*21*	*22*	*23*	*24*	*25*	*26*	*27*
7011	**204**	**18**	**4**	***10002286024413701120401800 1**	**42**	**99**	**990**	**15000**		**18000**	**3000**			**3000**	**9000**	**3000**	**3000**	**3000**	**6000**	**3000**	**1900**	**1100**
7011	**204**	**18**	**4**	***10002286024413701120401801 0**	**42**	**52**	**110**		**-7838**	**-7838**	**-2600**			**-2600**	**-918**			**-918**	**-4320**	**-1440**	**-1440**	**-1440**
7011	**204**	**18**	**4**	***10002286024413701120401801 0**	**42**	**52**	**120**		**-7162**	**-7162**	**-4162**			**-4162**	**-1007**		**-784**	**-223**	**-1993**	**-83**	**-223**	**-1687**
7109	**401**	**18**	**4**	***10002286024413710940101800 1**	**47**	**21**	**700**		**-3000**	**-3000**	**-3000**			**-3000**	**0**				**0**			
	Jami							**15000**	**-18000**	**0**	**-6762**	**0**	**0**	**-6762**	**7075**	**3000**	**2216**	**1859**	**-313**	**1477**	**237**	**-2027**